



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Jo'rayeva Farangiz

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Yurisprudensiya ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi

TO'RTINCHI HOKIMIYATNI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATGA TATBIQ QILISH

Annotasiya. Ushbu maqolada Milliy axborot makonini tashkil etish, rivojlantirish shuningdek xorijiy mamalakatlar bilan aloqani kuchaytirishga qaratilgan islohotlar, imkoniyatlar ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Milliy axborot manbai, partiya globallashuvi, veb-resurslar, ommaviy komunikatsiya, media tuzilma, axborot agentligi, teliradio va kabel studiya, ommaviy axborot vositaari.

Аннотация. В данной статье указаны реформы, возможности, направленные на организацию, развитие национального информационного пространства, а также на укрепление связей с зарубежными странами.

Ключевые слова: Национальный источник информации, партийная глобализация, веб-ресурсы, массовые коммуникации, медиа структура, информационное агентство, теле-и кабельное телевидение студия, СМИ.

Annotation: this article shows reforms, opportunities aimed at organizing, developing a national information space, as well as strengthening ties with foreign regions.



Keywords: National Information Source, party globalization, web resources, public communion, media structure, news agency, broadcasting and cable studio, Media mediator.

Kirish. Ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini ta'minlash, ularni xalq bilan muloqot uchun erkin minbarga aylantirishni qo'llab-quvvatlaymiz. OAVga oid qonunchilik asoslarini mustahkamlash, bosma va elektron vositalarni davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilgan. Partiya globallashuv sharoitida millatimizning o'ziga xosligini saqlashni ta'minlash, uning xavfsiz axborot rivoji uchun asos yaratish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat axborot siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etish, tashabbuskor bo'lishni o'z faoliyatining ustuvor vazifasi, deb biladi. Internet jahon axborot tarmog'ida bilimlar, axborot makonini shakllantirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy va foydali veb-resurslarni yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.[1] **Milliy axborot makonini rivojlantirish sohasida:**

ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish va axborot sohasini yanada liberallashtirish hamda demokratlashtirish, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, aholining axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

ochiq axborot makonini yaratish, shu jumladan, xalqaro reytinglarda O'zbekiston Respublikasi egallagan o'rmini izchil yaxshilash va mamlakatimizning ommaviy axborot vositalari erkinligi indekslari yuqori darajada bo'lgan ilg'or davlatlar qatoriga kirishini ta'minlash;

ochiq axborot makoni yaratishning huquqni qo'llash amaliyotini hamda tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari joriy holatini monitoring qilish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini, uning axborot suverenitetini ta'minlashga qaratilgan siyosat yuritish; dolzarb milliy axborot tizimlari va axborot resurslarini shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonlariga ko'maklashish,



shuningdek, elektron davlat xizmatlari sifati va aholining ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan, yoshlarni tashqi salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish, shuningdek jamiyatimizda konstruktiv kommunikatsiyalar muhitini yaratishga ko‘maklashish.

Milliy axborot makonini barqaror va xavfsiz rivojlantirish sohasida:

OAV faoliyatiga raqamli, innovatsion va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish; bolalar va yoshlarni jismoniy va ma’naviy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi axborotlardan muhofaza qilish ishlarini kuchaytirish;

barcha turdagи ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, bosma nashrlarning erkin, sog‘lom raqobat muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan tashkiliy huquqiy sharoitlarni yaratish;

jahoning global axborot makonidagi media tuzilmalar bilan teng raqobat qila oladigan Milliy media-xolding va boshqa axborot korporatsiyalariga asos solish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

aholi, ayniqsa, yosh avlodda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish; ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish mas’uliyatini oshirish va uni tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish.[2]

Asosiy qism. Yangicha sharoitda axborot sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida sobiq O’zbekiston matbuot va axborot agentligi negizida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzurida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilganidan xabaringiz bor. Ma’limki, hozirgi kunda tobora tezkor va ko’ptarmoqli sohaga aylanib borayotgan ommaviy axborot vositalari uchun global media makonda keskin raqobatga dosh bera oladigan, faol grajdanilik pozitsiyasi ega zamonaviy kadrlar tayyorlash oldimizda turgan eng muhim vazifadir. Ana shu zaruratni hisobga olgan holda tashkil etilgan O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti an’anaviy bilim va ko’nikmalar bilan birga, innovatsion tafakkur, sohaga oid texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta



egallagan kadrlar tayyorlash bo'yicha respublikamizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalariga aylanadi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda ommaviy axborot vositalarining o'rni nihoyatda muhim, bugungi kunda ular jamiyatni intellektualizatsiya qilish, uning ta'lim tizimi va madaniyatini rivojlantirish jarayonida asosiy o'rinni egallaydi. Ularning inson faoliyatining turli sohalarida keng qo'llanilishi o'rganish va idrok etishning dastlabki bosqichlaridan boshlab ular bilan tanishishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Ta'lim tizimi va fan jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ob'ektlaridan biridir. Ta'limni axborotlashtirish, bilimlarni uzatish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, axborotlashtirishda qo'llaniladigan texnologiyalarni sinchkovlik bilan sinab ko'rishni va ularni keng qo'llash imkoniyatini talab qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim sohasida faol ravishda qo'llash istagi mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Keyin paytda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida hayotimizdagi ijobiy o'zgarishlar tahlili,sog'lom tanqidiy ruh kuchayib borayotgani alohida e'tiborga loyiq.[3] Davlat boshqaruvi organlari demokratianing muhim tayanchi bo'lganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: «Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», -deyilgan.[4] Ko'rinish turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, ularning xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televiedeniya vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga ega bo'ldi. O'zbekistonda 2001-yil 1-yanvargacha-390 ta gazeta; 110 ta jurnal; 2 ta axborot agentligi; 52 ta telestudiya; 5 ta radiostudiya; 3 ta teleradiostansiyalar kabi ommaviy axborot vositalari mavjud bo'lib, ular erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Oliy majlisning palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida



demokratik o‘zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta’minlamasdan mumkin emas deb qayd etdi. 2004-yilning 1-yanvar oyiga ko‘ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 Elektron axborot vositalari ishlamoqda. 2017-yilda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat korsatmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning shaxsan tashabbusi va sa’yharakatlari bilan yana ikkita: O‘zbekiston Respublikasining «Jurnalistlik kasbini himoya qilish to‘g‘risida» hamda «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida» Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tom ma’noda ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mavjud bo‘lmagan qonunlardir. Ushbu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to‘la miqyosda ta’minlaydigan huquqiy qurol bo‘lib, aholi uchun axborot olish va etkazishning bosh vositachisi deb qaraluvchi jurnalistning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi[5]. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ommaviy axborot vositasi to‘g‘risida I chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining (1996-yil, avgust) 6-sessiyasida shunday degan edi: «Matbuot, axborot vositalari demokratik rivojlanishi uchun ulkan ahamiyatga ega. Biroq Shuni ham e’tirof etish kerakki, demokratlashtirish jarayonida hozircha ommaviy axborot vositasining faol roli sezilmayapti. Ular shu paytgacha o‘zlarini «to‘rtinchi hokimiyat» sifatida namoyon qilganlari yo‘q.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mustaqilika erishgandan so‘ng xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o‘rnatish masalasi tashqi siyosiy faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanchalik tez kirib borishi ana shu axborot vositalari tarqatadigan xabarlarining to‘g‘riligiga bog‘liq. Ayni paytda shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o‘z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo‘lishi kerak. Ayni vaqtida ular 69 jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tuShunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo‘yicha faol ish olib borishi lozim. Birinchi Prezidentimizning «O‘zbekiston ijtimoiy hayotida televidenie va radio rolini ko‘tarish to‘g‘risida»gi 1997-yil 7-maydag‘i Farmoni



yuqorida ko‘rsatilgan masalalarini me’yoriy tartibga solishda ko‘riladigan choratadbirlarning ommaviy ifodasi bo‘ldi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M . Milliy tiklanishdan-milli yuksalish sari.T.: -2017.B-63-66
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. T.: -2019. 379-bet
- 3.Xoliqova R.E. O’zbekistonning eng yangi tarixi.T-2021.-65-69-betlar
- 4.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent, -2015.
- 5.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida” gi farmoni. 7-fevral 2017.